



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM OPPORTUNITIES OF ZAMIN STATE RESERVE AND NATIONAL PARK

I. E. Karimov*Ph.D., associate professor**Jizzakh State Pedagogical University**Jizzakh, Uzbekistan***S.S. Anorboyev***Master's student**Jizzakh State Pedagogical University**Jizzakh, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Reserve, ecotourism, national park, natural monument, relief factor, hydrogeological factor, biological resource, ecological tourism.

Received: 10.10.23**Accepted:** 12.10.23**Published:** 14.10.23

Abstract: The article analyzes the ecotourism possibilities of the Zomin State Reserve and National Park, the natural monuments located in its territory, and the factors related to the development of ecotourism tourism based on them.

ZOMIN DAVLAT QO'RIQXONASI VA MILLIY BOG'INING EKOTURISTIK IMKONIYATLARINING GEOGRAFIK JIHATLARI

I. E. Karimov*PhD., dotsent**Jizzax davlat pedagogika universiteti**Jizzax, O'zbekiston***S. S. Anorboyev***Magistratura talabasi**Jizzax davlat pedagogika universiteti**Jizzax, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qo'riqxona, ekoturizm, milliy bog', tabiiy yodgorlik, relyef omili, gidrogeologik omil, biologik resurs, ekologik turizm.

Annotatsiya: Maqolada Zomin davlat qo'rixonasi va milliy bog'ining ekoturistik imkoniyatlari, hududida joylashgan tabiiy yodgorliklar va ular asosida ekoturizm sayyoqlikni o'sish surati bilan bog'liq bo'lgan omillar tahlil qilingan.

**ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЭКОТУРИЗМА
ЗАМИНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ЗАПОВЕДНИКА И НАЦИОНАЛЬНОГО
ПАРКА**

И. Э. Каримов

PhD., доцент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

С. С. Анорбоев

студент магистратуры

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Заповедник, экотуризм, национальный парк, памятник природы, фактор рельефа, гидрогеологический фактор, биологический ресурс, экологический туризм.

Аннотация: В статье анализируются экотуристические возможности Зоминского государственного заповедника и национального парка, памятники природы, расположенные на его территории, а также факторы, связанные с развитием экотуристского туризма на их основе.

KIRISH

Dunyo xo‘jaligi tarkibida eng jadal suratlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biri turizmdir. Turizm industriyasi ko‘pgina mamlakatlarning iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning hissasiga ko‘ra jahon yalpi milliy mahsulotining 10% i, jahon istemol sarfining 11% i to‘g‘ri keladi.

Hozirda turistik oqim, XX asrdan farqli, nafaqat rivojlangan mamlakatlardan rivojlanganlariga, balki rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon o‘zgarmoqda. Bu o‘rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O‘rta sharq hamda G‘arbiy Afrika mintaqalaridagi mamlakatlar yitakchilik qilmoqda.

ASOSIY QISM

Rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning malumotlariga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20 % qamrab olgan, o‘sish surati esa umumiyl turizm industriasining o‘sish suratidan 2-3 marotaba yuqori ekan.

Bu borada mamlakatning tog‘li hududlarida joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmualarida qishki va noyob sayyohlik dasturlari tashkil etilgan. Sayyohlikning yangi yo‘nalishi – yirik qo‘riqxonalar va bog‘lar hududida tashkil etilgan tabiatshunoslik turizmi rivojlanmoqda Statistik ma’lumotlarga qaraganda, yurtimizga kelayotgan sayyohlarning 41 foizi O‘zbekistonning aynan shunday manzaralar bilan tanishish maqsadida tashrif buyurmoqda.

Zomin davlat qo‘riqxonasi va milliy bog‘ining ekoturistik imkoniyatlarini ham yuqori darajada bo‘lb, 1928-yili O‘zbekistonda birinchi marotaba archalar va u yerdagi noyob hayvonot dunyosining tabiiy holda saqlanishini taminlash maqsadida Zomin tog‘ archazorlari davlat qo‘riqxonasi tashkil etildi. Uning umumiy yer maydoni 26840 getktarni tashkil etadi, shundan 22137,3 getktari o‘rmon bilan qoplangan, Qo‘riqxona yerlari tarkibiga tog‘ tizmalari kiradi, ular dengiz sathidan 1760 metrdan 3500 metr balandlikka ega bo‘lgan uch zonani o‘z ichiga oladi. Qo‘riqxona hududini qora archa, o‘rikarcha va saurarcha ko‘rinishdagi uch turdagilarchalar qoplangan. Tog‘larning yuqori yon bag‘irlarida saur archa turiga mansub bo‘lgan archalar, o‘rik archalari bilan tabiiy holda, tog‘ning quyi qismida zarafshon archasi saurarcha ko‘rinishdagi archalar bilan aralash o‘sadi. Archazor chekkalari Turkiston dulanasini, Fedchenko namatagi, Korolkov uchqati, qoraqat va irg‘ay butalari bilan qoplangan. Zomin qo‘riqxonasidagi 700 turdagil o‘simliklardan 20 turi O‘zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgan, 48 turi g‘arbiy Turkiston tog‘ tizmasining endemiklari hisoblanadi.

Dorivor o‘simliklarning 20 dan ortiq turlari qo‘riqxonada mavjud, ular: parpi, oqsavrinjon, qumloq bo‘znochi, valeriana, yalpiz, bo‘znoch va boshqalar. Manzarali o‘simliklarning 15 turlari malum. Qo‘riqxonada 216 turdagil qo‘ziqorinlar borligi aniqlanib, ularning 173 turi va 16 xili O‘zbekiston uchun avvaldan aniqlangan hisoblanadi, 90 turi Markaziy Osiyo, 53 turi Osiyo va 12 turi sobiq SSSR uchun yangi va 2 ta turi fan uchun yangilik, 12 ta turi endemik hisoblanadi. Qo‘riqxonaning hayvonot dunyosi xilma-xil bo‘lib, u sharqiy Buxoro zoogeografik hududiga moyil. Yalangtoshloqlarda Turkiston agamasi, qumloq va tuproq yerlarda chipor ilon, sariq ilon, cho‘l kaltakesagi va boshqalar uchraydi.

Archazorlar ayniqsa qushlarga boy. Bu yerda dehqon chumchuqlar, qorabuloq qorayaloq, archa boltatumshug‘i, Turkiston ukkisi, kulrang pung qushi, kaklik va Turkiston maynasi uchrab turishi oddiy holat. Daralardagi sharsharalarda binafsha qorayalog‘i va oddiy vahima qushlar, toshloq joylarda esa suvchumchuqlar oilasi va jiblajibonlar oilasi yashaydi. Baland tog‘ qoyalarida yirik yirtqich qushlar - qumoy, tasqara va boltayutarlar in qo‘yib hayot kechiradilar. Chortangi darasining odam chiqolmaydigan qoyalari orasiga har yili uchib keladigan bir juft qora laylak in qo‘yadi.

Qo‘riqxona hududida uchta quyidagi o‘simliklar mintaqasi mavjud: tog‘ cho‘li, o‘rmon va baland tog‘lik (subalp). Tog‘ cho‘li mintaqasi dengiz sathidan 1300 metrdan 2300 metrgacha bo‘lgan joylarni egallaydi. O‘rmon mintaqasi 2100 metrdan boshlanib 2700 metr balandlikgacha etadi.

Zomin davlat qo‘riqxonasining tabiatini va iqlimi. *Relyefi*. Qo‘riqxonaning geomorfologik jihatdan ikki qismga shimoliy va janubiy qismlarga ajratish mumkin. Shimoliy katta qismi paleozoy tog‘ jinslarining to‘rtlamchi davridagi yotqiziqlardan iborat. Hozirgi davr ichida ular

relyef xosil bulishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, rivojlanish jarayonida o‘z o‘rnini bo‘shatib bergen.

Suv ayirg‘ichlarning bir qator terrasalar pog‘onalari mavjud bo‘lib, daryolarning qadimgi oqim yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. Janubiy kichik qismi poleozoy tog‘ jinslarining kembriy, quyi va yuqori silur etiklaridan, jumladan slonets metomorfik qum, ohaktosh va fillitlardan iborat.

Hozirgi vaqtida ham davom etayotgan kuchli nurash natijasida, ayniqsa, bir muncha baland joylarda keskin relyef shakllari bo‘lib, ularning cho‘qqilari tik qoyalarni tashkil qilgan.

Bir muncha past qismida Turkiston tog‘ tizmasining asosiy suv ayirgichlarini ajratib chiqqan tarmoqlar joylashgan. Ular shu hududdan oqib o‘tadigan daryolar oralig‘ida suv ayirgichlar hosil qiladi. Ularning releyfi keyingi vaqtarda yemirilish jarayoni bo‘lmanligi sababli to‘liq shakllangan.

Qo‘riqxona shu jumladan G‘uralashsoy hududidagi tog‘lar, umuman, Turkiston tog‘ tizmasi gertsin orogenyozi jarayonida ro‘y bergan qudratli antiklinal burmadan iborat bulib, keyinchalik kuchli yemirilish jarayonlari relefni yanada parchalab yuborgan, tektonik uzilma, yorilma va bukilmalar bo‘ylab qator vodiy va ko‘tarilmalarni, yonma-yon cho‘zilgan tog‘larni hosil qilgan. Hududda paleozoy metamorfik jinslari keng tarqagan va bular orasida qumtosh va slanetslar juda ko‘p, ayrim joylarda ohaktosh va boshqa jinslar ham uchraydi.

Paleozoy cho‘kindi jinslari uzoq vaqt davom etgan kuchli tektonik bosim tufayli metamorfozlashgan. Bu hududda gilli, gilli-oxakli slanetslar ko‘p bo‘lib ular ba’zan yer yuzasiga chiqib qolgan.

Sangzor daryosining irmoqlaridan biri Ko‘lsoyning o‘rta qismida ohaktoshlar orasida bir darani mahalliy aholi «Chortangi» deb ataydi. Bu darada suv hayqirib oqib, sayroqi qushlar kabi turli tovush chiqaradi shuning uchun bu yerni «Sayrovchi dara» deb yuritishadi. Bu dara ohaktosh yotqiziqlari orasida deyarli 2 kilometr cho‘zilgan. Shuningdek bunday tor va chuqur daralar qashqasuv, Chortangi, va G‘uralashsoylarda ham mavjud.

Shuningdek G‘uralashsoyning o‘ng yonbag‘rida Katta Archali qismida ham ming yillar davomida nurash natijasida, shamol, yog‘ingarchiliklar oqibatida palaxsa toshlar turli shakllarga - afsonaviy ajdarho, yo‘lbars va boshqalarga o‘xhash ko‘rinishga ega bo‘lib ziyoratchilarni hayratga soladi.

Katta Archali soyning yuqori qismidagi shakllarning biri «Savat ko‘targan kampir» deb nomlanadi. Afsonalarga ko‘ra qari kampir o‘zining tog‘da mehnat qilayotgan choligameva-cheva, non, oziqalarni savatga solib boshida ko‘tarib ketayotganida qandaydir tabiiy ofat (yashin, shamol, yong‘in) uni toshga aylantirib qo‘ygan emish.

G‘uralashsoyga kiraverishdagi o‘ng sohilda ham konglomerat va qumtoshlarning nurashidan toshdan odamga o‘xhash shakldagi ko‘rinishga duch kelasiz. Mahalliy aholi uni «Tosh kuyov»

deb nomlagan.

Zomin – Turkiston tog‘ tizmalari bag‘ridagi eng xushmanzara maskanlardan. Dengiz sathidan to‘rt ming metr balandlikda joylashgan noyob ekotizimga ega “Zomin” xalq bog‘i va “Zomin” davlat qo‘riqxonasida o‘simgilarning 700 dan ziyod, kam uchraydigan yovvoyi hayvonlarning esa 150 turi mavjud.

Mustaqillik yillarida mazkur noyob tabiiy hududdagi bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, “Zomin” xalq bog‘ida faoliyat yuritayotgan “Turkiston tog‘ tizmalari fauna va florasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv monitoring markazi” hududdagi noyob tabiat boyliklarini tadqiq etish va asrash muammolari bilan shug‘ullanmoqda. Respublika o‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot institutining “Ko‘lsoy” tayanch punkti ham shu yerda joylashgan. Shuningdek, “Zomin” o‘rmon xo‘jaligida archa, bodom, pista, tog‘ teragi kabi daraxtlar ko‘chatlari parvarishlanib, mamlakatimizning boshqa hududlariga yetkazib berilmoqda.

Qadimiylar boy tarixga ega Zomin Vatanimiz mustaqilligi yillarida yurtimizning gullab-yashnagan maskanlaridan biriga aylandi. Keyingi yillarda yangi-yangi uy-joylar, ko‘chalar, ijtimoiy, xizmat ko‘rsatish inshootlari barpo etilishi shahar chiroyiga o‘zgacha chiroy qo‘shmoqda.

Go‘zal tog‘ tabiatidan bahra olish, archazorlar qo‘ynidagi “Zomin” sanatoriysida sog‘lig‘ini mustahkamlash uchun bu yerga mamlakatimizning barcha hududlaridan sayyoohlar, dam oluvchilar uzlucksiz kelib turadi. So‘nggi yillarda bu xushmanzara hudud xorijlik sayyoohlar e’tiborini ham torta boshladi. Uning o‘ziga xos ekzotik tabiatni, xilma-xil landshafti, flora va faunasi, “O‘riklisoy” sharsharasi, 700 yoshli Boboyong‘oq kabi tabiat yodgorliklari, tarixiy maskanlar sayyoohlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Ekoturizmni rivojlantirishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Ushbu ehtiyojni hisobga olib ishlab chiqilgan dastur asosida turistik yo‘nalishlarni belgilash, servis xizmati ko‘rsatish tarmoqlari tashkil etish, shu asosda mahalliy aholining bandligini ta‘minlash bo‘yicha bir qancha loyihibar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda “Zomin” davlat qo‘riqxonasi hududidagi O‘riklisoy, Hulkar, Usmonlisoy, Pishag‘ar qishloqlarida sayyoohlar uchun oltita uy-mehmonxona qurilgan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlari deganda davlatning tegishli organlari tomonidan qonunda belgilangan tartibda tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomashtirish, rekreatsiya, tarixiy-madaniy maqsadlar uchun ajratib berilgan yer maydonlari tushuniladi. Bu hududlar noyob o‘simgilik va hayvonot dunyosini, mineral suvlar hamda tabiat yodgorliklarini saqlash uchun ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, sanitariya sog‘lomashtirish ahamiyatiga egadir.

Zomin Davlat qo‘riqxonasi hududida joylashgan tabiiy yodgorliklar eng ahamiyatga molik. Shu sababli, Zomin tumani hokimligining 2014 yil 24 dekabr 1268-sonli qaroriga asosan qo‘riqxona hududidagi quyidagi tabiiy ob‘ektlar Qiziletaksoydagi “Qirqqiz”, G‘uralashsoydagi “Kuyovtosh”, Archamaydonsoydagi “Burama archa”, Oqechkisoydagi “Tosh kampir” va

Qizilto‘ri qsoydagi “Qirqqiz-2” davlat tabiat yodgorliklari deb e’lon qilindi.

Qo‘riqxona hududida uch turdag – qora (Zarafshon) archasi - *Juniperus seravschanica*, o‘rik (Turkiston) archasi - *Juniperus turkestanica* va savr (yarmsharsimon) archa - *Juniperus semiglobosa* o‘sadi. Tog‘larning yuqori yonbag‘irlarida savr archalari o‘rik archa bilan tabiiy holda aralash o‘sadi, quyi qismida qora archa savr archasi bilan aralash o‘sadi. Archazorlar atrofida Turkiston do‘lanasi, Fedchenko na’matagi, Korolkov shilvasi (uchqati), qoraqand, pufanak, ko‘prangli irg‘iy kabi buta va daraxtlar uchraydi.

Zomin davlat qo‘riqxonasida turli ekologik marshurtlarni amalga oshirish mumkin. Ekologik turizm resurslari bu-tabiatning betakror ko‘rinishlari, biologik xilma-xillik, biologik resurslar, tabiiy mintqalarning o‘ziga xos iqlim sharoitlariga qiziqish hisoblanishi turizm sohasidagi mutxassisliklarga ham, ekoturizmga qiziquvchilarga ham ma’lum turistik tur hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ekoturizm orqali chet ellik mehmonlar O‘zbekiston degan yurt hamda uning boy va betakror tabiatini haqidagi tessavurga ega bo‘lsalar, fuqarolari - o‘z Vatani bilan yaqindan tanishadilar, ularda ona yurtiga nisbatan milliy iftixor hamda g‘urur tuyg‘usini shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategyasi to‘g‘risida” gi Farmoni (7.02.2017-yil PF-4947-sun)
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojatnomasi. 2017-yil 22-dekabr
3. Usmanov, M. (2020). Agrar soҳадаги ислоҳатлар ва уларнинг ўзига хос ҳусусиятлари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-6.
4. Абдуллаев, И. Х., & Каримов, И. Э. (2021). ТУЯТОРТАР КАНАЛИНИНГ СУФОРМА ДЕҲҚОНЧИЛИКДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ТАРИХИ. ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО, 2(1).
5. Komilova, N. Q., Usmanov, M. R., & Karimov, I. E. (2021). “ZOMIN” TURISTIK-REKREATSION ZONASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Журнал естественных наук, 3(5), 311-315.
6. Каримов, И., Холмирзаев, Ж., & Жанизоқова, Г. (2021). МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ СУФОРИШ ТИЗИМЛАРИ ТАЪСИР ДОИРАСИДАГИ ГИДРОЛОГИК-ЭКОЛОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ЎЗГАРУВЧАНЛИГИНИНГ АСОСИЙ ҲУСУСИЯТЛАРИ. Журнал естественных наук, 3(5), 316-324.

7. Каримов, И. Э., & Бурхонов, Э. К. (2022). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИНИНГ СУВ РЕСУРСЛАРИНИ ШАКЛАНТИРУВЧИ ГИДРОГЕН ОМИЛЛАР. *Журнал естественных наук*, 1(2 (7)), 34-38.
8. Каримов, И. Э. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР ОСТИ СУВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *Журнал естественных наук*, 1(2 (7)), 134-138.
9. Karimov, I. E., & Samatova, N. R. (2022). MAN-MADE ACTIVITIES AND NATURAL DISASTERS (IN THE CASE OF JIZZAKH REGION). *Oriental Journal of Geography*, 2(02), 73-80.
10. Karimov, I. E., & Burkhonov, E. K. (2022). THE PROBLEM OF WATER SHORTAGE IN UZBEKISTAN AND ISSUES OF ITS ELIMINATION. *Oriental Journal of Geography*, 2(02), 62-67.
11. Karimov, I. E., & Umarova, K. B. (2022). CAUSES OF MAN-MADE TERRAIN DEGRADATION IN AGRICULTURE AND PROBLEMS OF THEIR ELIMINATION. *Oriental Journal of Geography*, 2(02), 68-72.
12. О.Н. Hamidov, А.Н.Norchayev “Е К ОТ У Р И З М” Tosh. 2011-yil
13. www.qo'riqxona.uz – qo‘riqxonalar haqida ma`lumot
14. www.o'zbekturezim.uz – turizmni rivojlantirish
15. www.world-tourism.org – jaxon turizm
16. www.wttc.org – Всемирный Совет по путешествиям и туризму
17. www.e-tours.ru – деловые туры, выставки, конференции
18. www.travel-library.com – Электронная библиотека путешествий